# YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA AN'ANAVIY MUSIQA VA BUGUNGI PEDAGOGIK MASALALARI XUSUSIDA

*Yunus Rajabiy nomidagi O'z.MMSI "Maqom xonandaligi" kafedrasi professori* ***Mavlyuda Xalilova (Matlyuba Dadaboyeva)***
dadaboyevaM@mail.ru

***Annotatsiya:*** *maqolada musiqa sohasida dars berib kelayotgan pedagoglarga talabalar bilan ishlashda samarali bo'lgan pedagogik tavsiyalar haqida to'xtalib o'tilgan. Misol tariqasida Sharq va G'arb musiqashunos olimlar, kompazitorlar, maqomdon ustozlarning nomlari va ularning musiqiy pedagogik mahoratlari haqida so'z yuritilgan. Salohiyatli bilimli kadrlarni tayyorlashda, ularni musiqiy qobilyatini oshirish, mahoratini jadal o'sishida pedagogning vazifasi va ahamiyati muhumligi yozilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *modernizatsiya,Goufman, pedagogika, metodika, Kaykovus, Qobusnoma, Miskin, Muhammasi Iroq, Samoi Dugoh,psixalogiya.*

***Annotation:*** *it is mentioned about pedagogical recommendations that are effective in working with students for educators teaching in the field of music. As an example, the names of eastern and Western musicologists, composers, master teachers and their musical pedagogical skills were mentioned. In the training of competent educated personnel, it is written that the task and importance of the educator is important in improving their musical abilities, in the rapid growth of their skills.*

***Keywords****: modernization, Goufman, pedagogy, methodology, Kaykovus, Kabusnoma, Miskin, Muhammasi Iraq,Samoi Duguh, psychalogy.*

***Аннотация****: речь идет о педагогических рекомендациях для преподавателей, преподающих музыку, которые эффективны в работе со студентами. В качестве примера были упомянуты имена восточных и западных музыковедов, композиторов, педагогов-педагогов и их музыкально-педагогическое мастерство. Написано, что задача и значение педагога в обучении грамотно образованных кадров имеют важное значение для совершенствования их музыкальных способностей, быстрого роста их мастерства.*

***Ключевые слова****: модернизация, Гуфман, Педагогика, методика, Кайковус, Гобуснома, Мискин, Мохаммади Ирак,сам Дугох, психология.*

## KIRISH

Musiqiy pedagog masalalarini ishlab chiqishda musiqa ta'limining xususiy metodikalari va atoqli musiqachilarning pedagogik tajribalari katta ahamiyatga ega.

Musiqa pedagogikasining har bir sohasi (ijrochilik, musiqa yozish, ijod, idrok etish, tinglash, musiqashunoslik, ma'rifiy ishlar, ta'lim,) o'ziga xos xususiyatlarga ega va bu xususiyatlarning har biri san'atkorda mujassam bo'lishi lozim. Ammo bu bilimlar o'z-o'zidan paydo bo'lmasligi ma'lum. Musiqiy ta'lim darajasi esa, doimo o'qituvchining pedagogik maakasi sifatiga bevosita bog'liq. Yaxshi o'qituvchi nafaqat pedagogik iste'dodga ega bo'lishi va musiqiy asarni ijro etish texnikasini egalashi, balki mavjud pedagogik nazariyalar va o'qitish metodlari bo'yicha tegishli hajmdagi bilimga ega bo'lishi lozim ekan[1].

Balki, o'qitish va tarbiya natijasidagi ta'lim olish yo'li bilan egallanishiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu pedagogik asoslar o'z navbatida talabalarning zarur pedagogik bilim , ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ta'lim sohasida innovatsion va zamonaviy pedogogik texnologiyalarni qo'llash evaziga ta'lim sifatini oshirish mustaqil fikrlashi, keng dunyoqarashga ega iqtidorli yoshlarni qaror toptirish va tarbiyalash maqsad vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi Qonunda ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jarayonda, inson erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi lozim. Bunday kadrlarni tarbiyalashda esa, malakali pedagogik bilimga ega o'qituvchining ahamiyati kattadir. Ta'lim sohasida modernizatsa qilish kechiktirib, paysalga solib bo'lmaydigan jarayon ekanligi shubxasizdir. Shu bilan birga, bugungi kunda musiqa darslarida o'qitishning samarali metodikalari ishlab chiqilayotgani ham tahsinga sazovor.

Musiqa sohasining pedagogik faoliyatiga to'xtalar ekanmiz, avvalo bu atama haqida tushuncha xosil qilish lozim. Musiqa ta'limi va tarbiyasi haqidagi bu fan tarixi yer kurrasida insonning paydo bo'lishi, pedagogikaning shakllanishi, musiqa madaniyatining insoniy turmush tarsi sifatida vujudga kelishi bilan bog'liq qadimiy davrlar bilan bog'liq va hozirgi kungacha davom etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI** Mutaxassis o'qituvchi faqat professional, yetuk musiqa fani o'qituvchisi emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg'or musiqa san'atini ommalashtira oladigan faol madaniyat arbobi etib tayyorlaydi. Shuningdek, musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalarni musiqa madaniyati fani o'qituvchisi amaliy faoliyatiga ham tayyorlaydi.

Zero, Sharq olimi davlat arbobi, yozuvchi, Kaykovus mashhur "Qobusnoma" didaktik risolasida musiqaga oid nasihati aynan musiqa pedagoglarga sozanda cholg'uchilar uchun 36-bobning "Hofizlik va sozandalik zikrida" kerakli so'zlar bor. Unda sozandalarga qarata: "Hamma vaqt og'ir yo'llarni chermag'il, chunki barcha

[1] O'zbekiston milliy entiklopediyasi I-jild. Toshkent-2000.

mashq va ohangni bir xilda chertish shart ermadur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo‘lg’on ermaslar, ta’blari ham bir-biriga muvofiq ermas. Shul vajdin bu fanning ustodlari san’atga shunday ta’rif bermishlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar tuzmishlar.” Demak, sozandalar shunday davra tadbirlarida atrof eshitguvchiga qarab, vaziyat va eshitguvchilarning yoshi, tadbir sababi va taklifga qarab sozini chertish kerakligi haqidayam pedagogik yondoshib fikrlarini ifodalaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, pedagogik ilmiy asarlar qadimdan paydo bo‘lgan ekan. Forobiy, Jomiy, Xusayniy, Changiy, Ibn Sino, Kavkabiy va yana ko‘plab allomalarimiz musiqa ilmiga doir ko‘plab risolalarni bizga yozib qoldirishgan[2]. Bu manbalar shu bugungacha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan holda bizlar uchun pedagogik o‘quv qo‘llanma vazifasini ham bajarmoqda. Ana shu metodlarni amalda asrlar davomida qo‘llanilgani uchun ham bu metodik pedagogik bilimlar avloddan avloda o‘tib o‘rganilishda ko‘prik vazifasini bajarayapti.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI** Bizning asosiy maqsadimiz – musiqiy savodli, ijro etayotgan asarining tub mohiyatini anglab, uni tinglovchiga to’liq va samarali tarzda etkazish qobiliyatiga ega bo’lgan ijrochilarni ko’paytirishdir. Bu nafaqat ijro etishning texnik jihatlariga e'tibor qaratishni, balki musiqaning ichki dunyosini chuqur tushunishni ham nazarda tutadi. Ijrochining vazifasi shundaki, u nafaqat o’zini ifodalashi, balki tinglovchini asar orqali o'ziga jalb qilishi, uni o'z dunyosiga olib kirishi kerak. Shunday qilib, har bir ijrochi o’z asarining haqiqiy mohiyatini his etib, uni dunyo miqyosida samarali tarzda namoyish eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Bu orqali biz milliy musiqamizning yanada kengroq auditoriya tomonidan qadrlanishiga va xalqaro maydonda tanilishiga erishishni ko’zlamoqdamiz. Yoshlarning musiqiy merosni o'zlashtirish jarayonida amaliy ijro namunalari, turli xalqaro musiqiy platformalar, festival va musiqiy tanlovlar orqali musiqiy va madaniy almashuvni kuchaytirish imkoniyati mavjud. Xalqaro festivallarda va kino filmlarida yangraydigan milliy musiqamiz, shu bilan birga, butun dunyoda tinglovchilarni bahramand qilib, o’ziga xosligi va go’zalligi bilan ajralib turishi kerak. Bunday musiqiy ijrolar, o'z navbatida, xalqaro madaniyatda milliy musiqamizni tanitishda muhim o’rin tutadi va uning o'ziga xosligini jahon sahnasida targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Mashhur kompazitor I.Gofman: “o‘quvchi har bir notani, sekvensiyasi, ritmni, garmoniyani va notada mavjud bo‘lgan barcha ko‘rsatmalarni anglab olmagunicha cholg’usiga yaqinlashishga oshiqmasligi, o‘zi uchun yaxshi ish bo‘lar edi, chunki chalish-ijrochi juda yaxshi bilgan narsaning qo‘llar yordamida ifodalanishidir” deydi.

[2] Yunusov R. Sharq xalqlari maqomlari T.,202

Musiqiy xotira, tafakkur, tasavvur, eshitish, ovoz, ritm, ijro texnikasini o‘rgatish va rivojlantirish musiqa pedagogikasi nigohidagi yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Eslaylik, V.A.Uspenkiy ham musiqa pedagogikasi o‘qitish maqsadida 1930-yillarda ikki va to‘rt qo‘l uchun maqom va xalq musiqasi asosida fortepiano asarlarini yaratgan bo‘lsada, ammo ularga “Muhammasi Iroq”, “Miskin”, “Samoyi Dugoh”, “Usmoniya”, “Rajabiy” deya atadi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR** Yuksak pedagogik mahorat egasi, hozirgi kunda kafedramizda ana shu ustozlarning yaratgan asarlariyu, qilgan sa’y harakatlari tufayli talabalarning ijro qiladgan dasturlarining boy ekanligini ta’kidlamasikning iloji yo‘q albatta. Bulardan: Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Abdusoat Vahobov, Domla Halim Ibodov va ularning shogirdi Yunus Rajabiy. Bu va yana ko‘plab nomlari zikr qilinmagan ustozlar tomonidan yaratilgan maktab va uning noyob ijodiy faoliyati o‘zbek milliy musiqa san’ati rivojida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo, yosh avlodning maqom ijrochiligiga bo‘lgan qiziqishi ortganligini ta’kidlash kerak. Bugungi kunda "ommaviy madaniyat"ning yoshlar orasida tobora kuchayib borayotgan ta’siri fonida, maqom ijrochiligiga bo‘lgan qiziqish yangi darajaga ko‘tarildi. Yosh ijrochilar orasida musiqaning an’anaviy shakllarini to‘liq va maromiga yetkazib ijro etadigan vakillar paydo bo‘ldi. Bu ijrochilar o‘z faoliyatlari orqali nafaqat milliy musiqaning boy an’analari va madaniyatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynashmoqda, balki xalqimizga xizmat qilishda davom etmoqdalar. Ular o‘z ijrolari bilan maqom san’atining yangilanishiga va uni avloddan-avlodga yetkazilishiga ko‘maklashmoqda.

**XULOSA VA TAKLIFLAR** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir musiqa madaniyati o‘qituvchining zimmasidagi eng katta vazifalardan biri, avvalo har bir talabaga induvidal yondoshib, uning musiqaga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirmaslik, iste’dodini rivojlantira olish uchun o‘zining yoshiga, ovoziga, psixologiyasiga, kursiga, ijro imkoniyatiga qarab tog’ri repertuar tanlab berish va xox yakka xox ansambl bo‘lsin, to‘g’ri metodikani qo‘llagan holda qiziqarli va mazmunli darsni olib borishi talab etiladi.

Tashabbus ko‘rsatib mehnat qilish hamda yuqori professionalism musiqa pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqa madaniyatining rivojlanishi, insonning musiqa olamiga qo‘ygan ilk qadamlari, barkamol shaxs bo‘lishida uning musiqiy iqtidorini takomillashtirish aynan o‘zining maktabini, ijrochilik uslubini, rang-jilosini yarata olgan o‘z ishiga sodiq musiqiy pedaogoglardir deya olamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Prezident Sh.Mirziyoyev “Qarorlar Konsepsiyasi” inernet sahifasi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g’risida”gi Qarori
2. O‘zbekiston milliy entiklopediyasi I-jild. Toshkent-2000.
3. “Yoshlik qo‘shig’I” G’ulom Qo‘chqorov Toshkent- 1986.
4. “Maktab repertuari” A.A.Yuldashev Farg’ona-2020.
5. “Maktab repertuari” O.K.Mamirova Farg’ona- 2020.
6. “Musiqa pedagogikasi” Rauf Qodirov Toshkent-2018.
7. O‘zbekiston Respublikasi PrezidentininAg 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son “O‘zbekiston Republikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g’risida”gi Farmoni.
8. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963

